
"Ayol borki, olam munavvar"

Rishton tumanida 8 mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan "Ayol borki, olam munavvar" nomli bayram tadbiri tashkil etildi.

????Tadbirda davlat va jamoat ishlarida, o'qishda va ijodda tumanimiz hayotining barcha sohalarida faoliyat yuritayotgan faol ayol qizlar, aziz va muhtarama onaxonlar ishtirok etishdi.

????Bayram tadbirini tuman hokimi ochdi va muhtarama onaxonlarni, aziz ayol-qizlarni 8 mart Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan samimiy muborakbod etdi.

????Tadbir davomida tumanimizning ijtimoiy-ma'naviy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi samarali faoliyati uchun bir guruh xotin-qizlarga tuman hokimligi tomonidan tayyorlangan bayram sovg'alari tuman hokimi hamda sektor raxbarlari tomonidan tuhfa etildi.

????Bayram tadbirida tuman madaniyat bo'limi xodimlari tomonidan tayyorlangan konsert dasturlari barchaga ko'tarinki kayfiyat baxsh etib, raqsga chorladi.

2024-03-07 14:25:45